

“O‘zenergosotish” aksiyadorlik jamiyati Yagona aksiyadorining
2-sonli qarori

2026-yil “21” may

Toshkent shahri

“O‘zenergosotish” AJ tomonidan chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi oddiy aksiyalar 176 592 donani tashkil etadi.

“O‘zenergosotish” AJning barcha ovoz beruvchi aksiyalari O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga tegishli bo‘lib, ushbu vazirlik Jamiyatning Yagona aksiyadori hisoblanadi.

Ushbu qaror “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga asosan quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi:

“O‘zenergosotish” AJning 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasini tasdiqlash.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

“O‘zenergosotish” AJ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining (yagona aksiyador) 2023 yil 24 noyabrdagi 1-son qarori bilan tashkil etilgan bo‘lib, Jamiyatning to‘laqonli faoliyati 2024 yilning iyul oyidan yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 sentabrdagi PF-166-sonli Farmoni bilan “2023-2030 yillarga mo‘ljallangan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozori mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tish” Konsepsiyasi tasdiqlangan.

Shuningdek, mazkur Farmon bilan “O‘zenergosotish” AJga elektr energiyasi ishlab chiqaruvchilaridan elektr energiyasini markazlashgan tartibda xarid qilish hamda tegishli korxonalar va iste’molchilarga belgilangan tariflarda sotish, elektr energiyasining eksport va import operatsiyalarini shartnomalar asosida amalga oshirish kabi funksional vazifalar ham yuklatilgan.

Shu bilan birga, “2023-2030 yillarga mo‘ljallangan elektr energiyasining ulgurji va chakana bozori mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tish” Konsepsiyasidagi elektr energiyasining ulgurji va chakana bozori mexanizmlariga o‘tishining asosiy bosqichlari davrida “O‘zenergosotish” AJning xo‘jalik jamiyati sifatida barqaror rivojlanishining muhim shartlari hamda o‘ziga yuklatilgan strategik funksional vazifalarning bajarilishini o‘z ichiga olgan 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi loyihasi ishlab chiqilib, Jamiyat Kuzatuv kengashining 2025-yil 17-noyabrdagi majlisida ushbu Strategiyani Jamiyatning Yagona aksiyadoriga tasdiqlash uchun kiritish yuzasidan qaror qabul qilingan.

Shuningdek, Strategiyada elektr energiyasining raqobatli ulgurji va chakana bozori mexanizmlariga o‘tishning asosiy bosqichlaridagi jarayonlarda “O‘zenergosotish” AJning tutgan o‘rni, strategik missiyasi va korporativ qadriyatlari keltirib o‘tilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib hamda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq kun tartibidagi masala yuzasidan “O‘zenergosotish” AJning Yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “O‘zenergosotish” AJning 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “O‘zenergosotish” AJ boshqaruvi raisi (Obidjonov) Jamiyatning 2025-2030 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish Strategiyasida ko‘zlangan maqsadlarga erishilishi va qo‘yilgan vazifalarni bajarilishi bo‘yicha lozim bo‘lgan barcha choralarni amalga oshirilishini ta’minlasin.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vaziri
o‘rinbosari

 **X. Mustafayev**